



KONCHILAR HAYOTI



Gazeta 1991-yildan chiqarib boshlagan

№20 (806), 2025-yil 30-oktabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz

3-gidrometallurgiya zavodi tashkil topganligining 30 yilligiga

SHONLI SANA

Uchquduqni haqli ravishda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining beshigi deyishadi. Ulkan korxonada faoliyatini boshlagan dastlabki davrda hududdan uran qazib olingan bo'lsa, keyinchalik oltin konlarining topilishi va o'zlashtirilishi ma'danni qayta ishlash uchun gidrometallurgiya zavodini barpo etish ehtiyojini tug'dirdi. 3-gidrometallurgiya zavodi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk davrida ana shu maqsadda foydalanishga topshirilgan yirik korxonadir. 1995-yilning yozida ishga tushirilgan mazkur oltin saralash zavodi mustaqil O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Amalda bu zavod hududga yangi hayot bag'ishladi, odamlarda kelajakka ishonch uyg'otdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bekzod Husanov, Komiljon Toshpo'latov, Tolmas Hasanov, Mahmud Jumayev, Akmal Baxronov, Alisher Usmonov, Baxtiyor Qandaxorov, Zuhridin Sirojov, Bobur Shirinov, Bobur Eshpo'latov, Anvar Qodirov, Dilshod Shodiyev singari yosh mutaxassislarining nomlarini mamnuniyat bilan e'tirof etib o'tdi.

Tantanal yig'ilishda zavodning bir guruh ishlab chiqarish ilgorlari turli darajadagi "Konchilik shuhrati" ko'krak nishonlari, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati faxriysi" unvoni, kombinat Faxriy yorlig'i bilan taqdirlandilar. Ular orasida bosh asbobsoz Ulug'bek Hamroyev, flotatsiya sexi reagentlarni tayyorlash va dozalash bo'linmasi boshlig'i Nurmat Yuldashev, elektr jihozlarini

Bundan 30 yil muqaddam ishga tushirilgan 3-gidrometallurgiya zavodi mamlakat iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'ttiz yillik bosib o'tilgan yo'l aytishga oson. Bu sana tarix oldida g'oyat qisqa davr. Ammo, amalga oshirilgan ishlar natijasida 3-GMZ jamoasi ulkan marrani zabt etishga erishdi. Bugun zavod ishchi-xodimlari bu marralari bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi.



IQTISODIY YUKSALISH YO'LIDAN

Birinci bosqichda zavodda oksidlangan ma'danlarni qayta ishlash ko'zda tutilgan bo'lib, dastlabki o'n uch yilda faqat oksidlangan ma'danlar qayta ishladi. "Qoqpatas" konlari ma'danlarini maydalash uchun uchta maydalash tegirmonlari, bo'tanani quyultirish tindirgichlari hamda sorbsion - sianlash jarayonida to'yinagan sorbent sifatida ionlashuvchi qatronon foydalanilgan.

Ikkinchi bosqich 2008-2011-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda oksidlangan ma'danlar zaxiralarning kamayishi sababli sulfidli ma'danlarni qayta ishlash imkonini beradigan yangi texnologik majmualar barpo etildi. Sulfidli ma'danlarni flotatsion boyitish, flotatsion konsentratni biooksidlash va biooksidlash jarayonining tayyor mahsulotini sorbsiyalashdan iborat birinchi navbatli ishga tushirildi. Yangi kompressor stansiyasi qurildi va amaldagisi kengaytirildi. Yangi biooksidlash texnologiyasining barpo etilishi - oltinni ishlab chiqarish uchun kapital mablag' va elektr energiya sarfini kamaytirishga hamda ekologik jihatdan atrof-muhitga zarar yetkazilmasligiga imkon berdi.

2009-yilda BIOKS mahsulotini sorbsiyalash uchun zamonaviy "KEMIKS" texnologiyasi foydalanishga topshirildi. Keyinchalik, amaldagi flotatsiya bo'limi modernizatsiya qilindi.

2011-yilda majmuaning navbatdagi bosqichi muvaffaqiyatli foydalanishga topshirilishi bilan ikki yil oldingi ko'rsatkichlarga taqqoslanganda sulfidli ma'danlarni qayta ishlash 27 foizga, oltin ishlab chiqarish 35 foizga oshdi.

Zavod ishlab chiqarish quvvatlarining o'sib borishiga maydalash sexidagi yangi tegirmon bloklarining qurilishi va foydalanishga topshirilishi yordam berdi. 4-tegirmon blokining ishga tushirilishi natijasida ma'danni maydalash unumdorligi 38,2 foizga oshgan bo'lsa, 5 va 6-tegirmon bloklari foydalanishga topshirilgach, bu ko'rsatkich 28 foizga ko'paydi.

2019-yilgacha davom etgan uchinchi bosqichda sorbsiyalash jarayoni ionlashuvchi qatronon faollashtirilgan ko'mirga o'tkazildi. Shu sababli to'yinagan ko'mirni qayta ishlash uchun qisqa muddatda noyob desorbsiyalash jarayoni qurilib ishga tushirildi. Ko'mirni qayta ishlash texnologiyasini tadbir etish sorbsiya jarayonida oltinni ajratib olish darajasini 80 foizga oshirishga olib keldi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 1-martdagi qarori bilan tasdiqlangan "2017-2026-yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinatini strategik rivojlantirish dasturi" korxonada taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi.

Kombinatimizning bir guruh olim va mutaxassislarining 3-gidrometallurgiya zavodida olib borgan "Texnologik va ishlanishi murakkab bo'lgan oltin tarkibli ma'danlarni qayta ishlash va o'zlashtirishning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish" ilmiy ishlanmasi O'zbekiston va dunyo miqosida tan olinib, xalqaro oltin medal, fan va texnika sohasida Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Davomi 2-betda



Zavod tashkil topganligining 30 yilligini nafaqat korxonada ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari, balki barcha uchquduqliklar keng nishonlayotganliklari bejizga emas. Darvoqe, o'tgan davrda ahil jamoa sharafli yo'lni bosib o'tdi, zavodning ma'danni qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqarish quvvati oshdi. Zavodda murakkab ishlab chiqarish jarayonlari, zamonaviy texnologiyalarni puxta biladigan hamda mohirlik bilan boshqara oladigan mahalliy kadrlarning butun bir avlodi voyaga yetdi. Bir so'z bilan aytganda, bugun zavod ishlab chiqarishi ishonchli qo'llarda.

24-oktabr kuni zavodda korxonada ishga tushirilganligining shonli sanasiga bag'ishlangan tantana bo'lib o'tdi. Unda, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruv raisi-Bosh direktori Q.Sanaqulov zavod jamoasi, ishlab chiqarish ilgorlari va mehnat faxriylarini 3-GMZning 30 yilligi munosabati bilan samimiy qutladi hamda korxonaning yuksalish bosqichlariga to'xtalib o'tdi.

Takidlanganidek, dastlabki yillarda zavodda

2 million tonna ma'dan qayta ishlangan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bu raqam besh baravarga oshdi. Joriy yilda korxonada qariyb 15 tonna mahsulot ishlab chiqariladi. Biologik oksidlash texnologiyasining joriy etilishi muhim voqea bo'ldi. Zavodda biooksidlash modullarini ko'paytirish hisobiga bioreaktorlar soni 60 taga yetkazildi. Bu, ma'danni qayta ishlashni 28,7 foizga, yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarishni 28 foizga oshirish imkonini berayapti. Ushbu korxonada dunyodagi biooksidlash texnologiyasi asosida ishlaydigan 18 ta zavodning eng yirig'idir.

Keyingi yillarda Investitsiya dasturi doirasida 7 va 8-tegirmon bloklari ishga tushirilishi hisobiga zavodning kunlik qayta ishlash quvvati 23 ming tonnadan 28 ming tonnaga yetkazildi. Bosh direktor tabrik so'zida zavodning rivojlanishi va jamoa erishayotgan yutuqlarga munosib hissa qo'shgan va qo'shayotgan Naim Amonov, Baxtiyor Xolmurodov, Qahramon G'afurov, Nuriddin Mirzoyev, Shuhrat Narbadalov, Dmitriy Medvedev, Lada Lagoda kabi yetuk mutaxassislar,

ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish elektrotexnika uchastkasi boshlig'i Dilshodbek Isakov, maydalash sexi boshlig'i o'rinbosari Abdulaziz Xushbakov, sex energetigi Rashid Shodmonov, yirik maydalash sexi boshlig'i Erkin Boymurodov, texnologik jihozlarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish uchastkasi ta'mirllovchi-chilangari Ulug'bek Mirzayev, maydalash sexi tegirmon mashinisti Kuandik Axmetov, flotatsiya sexi dozalash apparatchisi Umidjon Sobirov, sorbsiya, regeneratsiya va tayyor mahsulot sexi qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish apparatchisi Sohib Shirinboyev, quyultirish, sanoat chiqindilarini zararsizlantirish va reagentlarni tayyorlash sexi gidrometallurg apparatchisi Nodirbek Rahmonov va boshqalar bor.

3-gidrometallurgiya zavodi tashkil topganligining 30 yillik tantanasini "Farhod" va Uchquduq madaniyat saroylari badiiy jamoalarining kuy-qo'shiqlari, raqslarga ulanib ketdi. Bayram shodiyonalari kechgacha davom etdi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.

Xalqaro anjuman



Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy jahon adabiyotining buyuk namoyandalardan hisoblanadi. Bundan nafaqat o'zbek xalqi, balki butun turkiy dunyo vakillari har qancha faxrlansa, iltifor qilsa arziydi.

Navoiy shahrida joriy yilning 17-18-oktabr kunlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyat hokimligi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi hamda Navoiy davlat universiteti hamkorligida "Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining umumbashariyat ma'naviy va ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusida V xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi.

Unda, AQSh, Turkiya, Yaponiya, Ozarbayjon, Eron, Pokiston, Afg'oniston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlardan navoiyshunos olimlar hamda respublikamiz oliygohlaridan taniqli professor-olimlar, ijodkor ziyolilar, ma'naviyat sohasi fidoyilari qatnashdi.

Konferensiya avvalida ishtirokchilar, keng jamoatchilik vakillari, yoshlar viloyat markazida qad rostlagan hazrat Alisher Navoiyning haykali poygala gulchambar qo'yib, ulug' mutafakkirga ehtirom ko'rsatishdi. Anjumaning Ma'naviyat va ma'rifat markazida o'tkazilgan ochilish marosimida viloyat hokimi Normat Tursunov, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi direktori Olimjon Davlatov va boshqa navoiyshunos olimlar buyuk mutafakkir bobomizning betakror ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidladilar.

Ishirokchilar "Alisher Navoiy ilmiy merosi va jahon ilm-fani rivoji", "Alisher Navoiy adabiy merosi va umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti",

"Jahon navoiyshunosligi: bugungi yutuqlar va yangiliklar", "Navoiy ijodiyoti tadqiqi: fanlararo munosabat va zamonaviy talqin", "Navoiy Xamsa'si va komparativistika masalalari", "Alisher Navoiy va jahon tilshunosligi", "Alisher Navoiy va adabiy ta'sir masalalari" kabi sho'balarga bo'linib, buyuk mutafakkir ijodini o'rganishda erishilgan yutuqlar va yechimini kutayotgan masalalar xususida fikr almashdilar.

Xalqaro ilmiy konferensiyaning ikkinchi kunida ishtirokchilar Nurota tumanidagi "Chashma" ziyoratgohida bo'lishdi va u yerda tashkil etilgan milliylikni targ'ib etuvchi ko'rgazma bilan yaqindan tanishdilar. Tuman markazidagi amfiteatrdan musiqali badiiy-ma'rifiy dastur tashkil etildi.

Xalqaro anjuman ishtirokchilarining fikr-mulohazalaridan ba'zilarini e'tiboringizga havola etamiz:

Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Anqara shahridagi Boshkent universiteti professori, Alisher Navoiy nomidagi tadqiqotlar amaliy markazi direktori:

— Men, "Alisher Navoiy she'riyatida tanqidiy tahliliy tafakkur" va "Alisher Navoiy asarlarida xizmat va burch tushunchasi" kabi dolzarb mavzularga bag'ishlangan o'ngacha yaqin ilmiy maqolalar muallifiman. Turkiyaning Ko'nyo shahrida Alisher Navoiy bog'ini yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Navoiyda bo'lib o'tayotgan ushbu anjumanda biz noyob madaniy va ekologik tashabbusni e'lon qildik. Anjuman doirasida

ma'ruza qilgan har bir ishtirokchiga maxsus shaxsiy sertifikat berildi. Ushbu guvohnomaning mohiyati shundan iboratki, har bir ma'ruzachi nomidan boqqa ilm-fanga qo'shgan hisssasi va uzluksizligini anglatuvchi daraxt ekildi.

Nurboy Jabborov, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori:

— "Muhokamat ul-lug'atayn"da Alisher Navoiy turkiy tilning dunyo tillari orasidagi o'rni nechog'liq baland ekani haqida mana bunday yozdi: "...uch nav'i tildurkim, asl va mo'tabardir va ul tillar iborat gavhari bilan qoyilning adosig'a zevar va har qaysining furu'i bag'oyat ko'ptur. Ammo turkiy va forsiy va hindiy asl tillarning mash'aidurki, Nuh payg'ambar salovattullohi alayhining uch o'g'lig'akim, Yofas va Som va Homdur, yetishur". E'tibor bering: "Asl tillarning mansha'i..." — bu hazilakam ta'rif emas. "Mansha'" — bu so'z "Navoiy asarlar lug'ati"da "bir narsaning chiqib kelgan o'rni, kelib chiqish joyi, boshlanishi", deya izohlangan. Demak, bizning tilimiz boshqa asl tillarning kelib chiqishiga asos, zamin bo'lgan tillardan va biz dunyoning eng qadim millatlaridan ekanmiz.

Shuning uchun ham ulug' allomaning ijodi, boy merosi asrlar osha qadrini yo'qotmay, dunyo xalqlarini ezgulikka chorlab kelmoqda.

Azamati ZARIPOV. Viktor YAKOVLEV olgan surat.

3-GMZ tashkil topganligining 30 yilligiga

Oramizdagi odamlar

IQTISODIY YUKSALISH YO'LIDAN



Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Bu ishlanma asosida Germaniyaning "Engineering Dobersek GmbH" injiniring kompaniyasi bilan hamkorlikda Filtrlash, quritish va kuydirish sexining ishga tushirilgan zavodda oltin ajratib olishni 17,2 foizga, qimmatbaho metall ishlab chiqarish hajmini 16,2 foizga oshirish yoki chiqindidan yiliga 1,5 tonna qo'shimcha oltin olish imkonini yaratadi.

Bu sex dunyoda yagona hisoblanib, chiqindilar qayta ishlanib, yiliga bir tonna miqdorida qo'shimcha oltin olinmoqda. Hozirgi kunda sexning ish unumdorligini oshirish va sorbsiya chiqindisining tarkibidagi oltinni to'liq va sifatli olish maqsadida kuydirilgan mahsulot bilan laboratoriya sharoitida tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bakterial oksidlanish sexi sulfid konsentratlarni qayta ishlab quruvchi bo'yicha dunyodagi eng katta majmua hisoblanadi. "Qoqpatas va Dovg'istov konlarida oltin ma'danlarini qazib olish (III-bosqich)" yangi investitsion loyihasi doirasida zavod tarixida yangi sahifalar ochilmoqda.

Xususan, ma'danni qayta ishlash hajmini oshirish maqsadida maydalash sexida yangi 7, 8-tegirmon bloklari ishga tushirildi, bu bilan ma'danni qayta ishlash hajmi 25 foizga oshirilib. 3-GMZning ma'danni qayta ishlash hajmi yiliga 10 million tonnaga yetdi.

Ayni damda biooksidlash sexi yanada kengaytirildi va 3-nabat 9-10 biooksidlash modullari ishga tushirildi. Yangi modullarning ishga tushirilishi sulfid konsentratlarining qayta ishlash va yarim tayyor mahsulot hajmini oshirishga yordam beradi.

Eng quvonarlisi shundaki, zavodimizda amalga oshirilayotgan qurilish-montaj ishlari natijasida zavodimizda yangi ish o'rinalari ochilmoqdi. Bu esa yosh mutaxassis kadrlarni ish bilan ta'minlashga zamin yaratyapti. Zavodimizda ro'y berayotgan yangilanishlar Yangi O'zbekistonimizning iqtisodiy yuksalishi, yurt obodligiga xizmat qiladi.

Bekzod HUSANOV,
3-gidrometallurgiya zavodi direktori.

Kon-metallurgiya sanoatida mehnat qilish har bir kasb egasidan matonat va fidoyilik talab qiladi. Janubiy kon boshqarmasi "Zarmitan" koni 1-sonli yer osti kon qazib olish ishlari uchastkasi o'tuvchisi Shavkat Tursunov shunday mas'uliyatli kasb sohibidir. Uning mehnati qadrlanib, "Do'stlik ordeni" bilan taqdirlangan.

SHARAFLI
KASB EGASI

Barvasta, ko'zi kulib turadigan, kamtarin bu insondan kasbi, uning o'ziga xos qiyinchiliklari, qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarining sir-asrori, ustozlari shogirdlari haqida so'radik.

– Taqdirimdan roziman, serfarzand oilada tug'ilib o'sdim, hayotda munosib o'rinni topdim, – deya so'z boshladi Sh.Tursunov. – Nasibam ulug' ekan, ko'p yillardan beri Navoiy kon-metallurgiya kombinatida korxonada mehnat qilmoqdaman. Ustozi avvalim otam edilar, bir umr "Zarmitan" dala-qidiruv ekspeditsiyasida ishlab o'tdilar. Mehnat faoliyatim 1993-yil "O'zbekolmosolin" ishlab chiqarish birlashmasi "Zarmitan" oltin koni yer osti bo'limida lahimchilikdan boshlandi. "Zarmitan" oltin koni Navoiy kon-metallurgiya kombinati tasarrufiga o'tgandan so'ng "Zarmitan" konida yer osti kon qazib olish ishlari uchastkasi o'tuvchisi bo'lib ishlab kelmoqdaman. Bu kasbda ishlab uchun avvalambor malakaga ega bo'lish kerak. O'tuvchilik kasbida jismonan baqavat, chidamli odam ishlay oladi, chunki konda qo'llaniladigan asbob-uskunalar ancha og'ir. Masalan, perforatorning og'irligi 35 kilogramm bo'lsa, zarbli bolg'a 15 kilogrammgacha, fonar uchun batareyali kamar esa taxmi-

nan 6 kilogrammni tashkil qiladi. Ularni ishlatish esa ancha-muncha kuch talab qiladi. Brigadamiz 8 nafar o'tuvchidan iborat bo'lib, 4 smenada 2 kishidan ishlaymiz, rahbarlikni uchastka boshlig'i amalga oshiradi. Brigadaning oylik rejasiga uchastka boshlig'i tomonidan ishlab chiqiladi. Ishni kon ustasidan naryad olishdan boshlab konga tushamiz. Biz gorizontal, qiya va tik kon lahimlarini o'tishda barcha kompleks ishlarni bajarimiz. Kon massasini yuklash va shpurlarni burg'lash ishlarni ish unumdorligi soatiga 100 kubometrgacha bo'lgan yuklash mashinalari va osma burg'lash qurilmasi o'rnatilgan uskunalarni qo'llagan holda bajarishimiz kerak. Barcha asbob-uskunalarimiz zamonaviy bo'lib, bu ish unumdorligining yuqori bo'lishi, vaqtni tejash imkonini bermoqda.

Hech kim ustoz ko'rmasdan o'z ishining ustasi bo'la olmaydi. Men ham kasbim sir-asrorlarini rahmatli ustozim F.Qayumov va K.Nurmanovlardan o'rganman. Ular o'tuvchidan intizom, yuqori darajada mas'uliyat talab qilinshini, zarur holatlarda tez harakat qilib, to'g'ri qaror qabul qila olishni, nozik eshinish qobiliyati va yuqori kuzatuvchanlikka ega bo'lish lozimligini va aynan shu

sifatlar favqulodda vaziyatlarda yordam berishini ta'kidlashgan. Mana 30 yildan ortiq vaqt davomida shu qoidalarga amal qilib kelmoqdaman. O'z navbatida X.Bo'ronov, O'.Jivanov, H.Kubayev kabi shogirdlarimga ustozlarimdan olgan bilimlarni o'rgatmoqdaman...

"Zarmitan" koni ishchi-xizmatchilari uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan, yuvinish xonalari, keng va shinam oshxonalar ularga xizmat ko'rsatmoqda. Ta'lim davrida ishchilar sog'lig'ini tiklashlari uchun "NKMK", "Gorniyak", "Chinobod", "Metallurg" profilaktoriysi kabi sog'lomlashtirish maskanlariga yo'llanmalar ajratilayapti.

Fidokorona mehnat aslo samarasiz ketmaydi, munosib baholanadi. Sh.Tursunov ham halol mehnati evaziga "Do'stlik" ordeni va "Konchilik shuhrati" ko'krak nishonining barcha darajalari bilan taqdirlangan.

– Biz, yer osti kon qazib olish ishlari uchastkasi o'tuvchilari kasbimizdan faxrlanamiz. Chunki qazib olish ishlari natijasi ko'p jihatdan bizning mehnatimizga bog'liqdir. Shu boisdan mas'uliyatni chuqur his etib, vijdonan ishlashga harakat qilamiz, – deydi Shavkat Tursunov.

A.AXMEDOVA suhbatlashdi.

Репортаж

В сердце древней самаркандской земли, где переплетаются история и современность, продолжается эпопея освоения перспективного золоторудного месторождения Узбекистана. Месторождение Чармитан в Зармитанской золоторудной зоне, управляемое Акционерным обществом «Навоийский горно-металлургический комбинат», становится символом промышленного прогресса Узбекистана.

Здесь, на глубине сотен метров под землей, рождаются тонны золотосодержащей руды, которая питает экономику республики и обещает благополучное будущее для тысяч семей. В этом репортаже мы погрузимся в мир подземных лабиринтов, строительных площадок и социальных инициатив, чтобы рассказать о том, как золото Чармитана меняет жизнь региона.

ШАХТНЫЕ СТОЛЫ И ДОБЫЧА

Представьте себе гигантские вертикальные туннели, пронзающие земную кору на сотни метров вниз. Это – шахтные столбы рудника «Зармитан», где каждый метр завоеван упорным трудом инженеров, горняков и шахтёров. В апреле 2025 года был торжественно сдан в эксплуатацию единственный в республике шахтный ствол «Скиповой». В настоящий момент здесь добыча золотосодержащей руды идёт полным ходом.

Рядом со «Скиповым» возвышается клетевой ствол «Главный» – сердце рудника. Сейчас здесь кипят работы по углублению. Ствол уже достиг глубины 1000 метров, и процесс армирования – укрепления стен специальными конструкциями – на стадии завершения. Внутренние диаметры стволов «Скиповой» и «Главный» составляют 6,5 и 5,5 метров соответственно, что позволяет вмещать больше груза.

Также горняки выполнили сбойку – соединение ствола с верхней действующей частью. Между стволами «Главный» и «Скиповой» также произведены сбойки на нулевом, 480-м и 420-м горизонтах. Эти соединения превращают шахту в единую сеть, облегчая транспортировку и повышая эффективность.

Эти работы ведутся под руководством чешской компании «Mine Construction Alliance s.r.o.».

– Мы также построили на нулевом горизонте главный водоотливной комплекс для откачки подземных вод, – рассказывает Сафаров Ахрор Эшкuvatovich, начальник отдела капитального строительства Южного рудоуправления. – Также заменили головные канаты на клетях, а после сбойки ствола будут заменены тормозные канаты. Это позволит клетям спускаться ещё глубже, открывая новые горизонты добычи.

Руда из шахты ствола «Главный» вывозится вагонетками, которые тянут электровозы – на-

дёжные машины, курсирующие по подземным рельсам. Клетки предназначены для перевозки людей и доставки материалов, необходимых для подземных работ. Все это создаёт слаженную систему, где каждый элемент работает как часы.

Чешские партнеры также заняты на 10-м стволе, известном как «Слепой». Там ведутся подготовительные работы по проходе от +600-го до нулевого горизонта. «Слепой» имеет диаметр 4,5 метра, а железобетонными креплениями для большей прочности.

По плану, строительные работы на «Главном» стволе завершатся к концу текущего года, а на «Слепое» – к 2028 году. Эти сроки – не просто цифры, а гарантия того, что Узбекистан сможет извлекать золото ещё долгие годы.

Золото Чармитана – это не только сырьё, но и источник валютных поступлений, которые укрепляют национальную экономику. По оценкам экспертов, месторождение может дать стране миллиарды долларов, способствуя развитию инфраструктуры и социальной сферы.

ХВОСТОХРАНИЛИЩЕ:
ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ И
РАСШИРЕНИЕ

Но добыча – это не только извлечение полезных ископаемых, а также ответственность за окружающую среду. В 2024 году были сданы в эксплуатацию первая и вторая карты хвостохранилища ГМЗ-4, расположенные за посёлком Заркент. Хвостохранилище – это место, где скапливаются отходы переработки руды, и его строительство требует строгого соблюдения экологических норм. Сейчас идут работы по расширению – строительству третьей карты. Эти работы должны завершиться по графику в марте 2026 года.

– Там сейчас работают около 30 единиц техники для земляных работ, – отмечает Сафаров Ахрор Эшкuvatovich. – Мы используем современное оборудование, чтобы минимизировать воздействие на окружающую среду. Хвостохранилище оснащено системами фильтрации, которые предотвращают загрязнение почвы и водоёмов. Это расширение не только повысит производительность, но и обеспечит безопасность для местных жителей. Заркент – небольшой посёлок, где живут семьи горняков, и

экологическая чистота здесь на первом месте. Проект хвостохранилища включает мониторинг качества воды и воздуха, а также рекультивацию земель после завершения работ. Узбекистан стремится к устойчивому развитию, и Чармитан – яркий пример этого подхода.

СОЦИАЛЬНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ

Параллельно с подземными работами развивается и наземная инфраструктура. На месторождении Марджанбулак в связи с расширением карьера возникла необходимость строительства новой автодороги Марджанбулак-Зармитан-Кошрабат. Этот проект сейчас в активной разработке, и он соединит ключевые точки золоторудной зоны, облегчив перевозку грузов и людей. Ожидается, что дорога будет завершена в ближайшие годы.

Кроме того, ежегодно проводится капитальный ремонт административных и вспомогательных зданий. В этом году, например, был сделан капремонт столовой в Марджанбулаке. Эти работы улучшают условия труда, способствуют повышению производительности и морального духа команды.

Надо отметить, что развитие производства на Чармитане положительно сказывается на инфраструктуре прилегающего посёлка Заркент. Это не просто новые рабочие места – это целый комплекс улучшений: дороги, социальные и культурные объекты, жилые здания. Посёлок, расположенный в живописной местности, становится центром притяжения для семей горняков.

Буквально накануне Дня независимости Республики Узбекистан здесь торжественно сданы в эксплуатацию новый жилой дом – четырёхэтажный, с 32 комфортабельными служебными квартирами. Этот дом – подарок для семей работников комбината, которые теперь имеют крышу над головой в шаговой доступности от работы. В следующем году планируется построить ещё два пятиэтажных дома по 40 квартир каждый, оборудованных лифтами. Это значит, что ещё больше семей смогут жить в современных условиях, с удобствами.

Но жильё – не единственное достижение. В прошлом году для работников рудника «Зармитан» был построен бытовое комбинат на 250 мест, включающий столовую на 80 мест. Теперь

подготовлен проект строительства ещё одного бытового комбината на 400 мест. В нём разместятся душевые, раздевалки, прачечная и помещения для выдачи нарядов на работу. Строительство предположительно начнётся уже в следующем месяце, что создаст удобные бытовые условия для полутора тысяч трудового коллектива рудника.

– Наши работники – это основа успеха, – подчеркивает Сафаров Ахрор Эшкuvatovich. – Мы инвестируем в их комфорт, чтобы они могли сосредоточиться на добыче золота, зная, что их семьи в безопасности и заботе.

В перспективе – строительство нового современного здания для Дома культуры «Кончи» на 500 мест. Этот комплекс станет сердцем культурной жизни посёлка: здесь разместятся библиотека, просторный концертный зал, молодёжный центр, крытый спортзал и помещения для творческих коллективов. Дом культуры – место, где дети и взрослые смогут развивать таланты, заниматься спортом и отдыхать. Это инвестиции в человеческий капитал, которые сделают Заркент не просто посёлком горняков, а полноценным культурным центром.

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ И
СОЦИАЛЬНЫЙ ЭФФЕКТ

Освоение Чармитана – это не только технический прогресс, но и мощный импульс для экономики Узбекистана. Золото – стратегический ресурс, и его добыча способствует росту ВВП, созданию рабочих мест и привлечению иностранных инвестиций.

Но самое важное – это влияние на людей. Тысячи семей получают стабильный доход, жильё и социальные услуги. Посёлок Заркент растёт: появляются новые дороги, магазины, школы. Это меняет жизнь к лучшему, делая регион более привлекательным для молодых специалистов.

В заключение можно сказать, что Чармитан – это не только месторождение, но и пример развития. Здесь сочетаются отечественные традиции горнодобычи с новыми технологиями, а социальные проекты улучшают жизнь людей. Впереди – новые задачи, и работа на руднике будет идти дальше.

Насиба ШАМУРАТОВА,
Фото Виктор ЯКОВЛЕВ.

3-GMZning
o'ttiz yilligi
arafasidagi
o'ylar

XX asr. Qizilqum. Hadsiz cho'l,
Sahroga naqsh urar shamol – musavvir.
Bunda saksovullar aldanar yelga,
Avrab dengiz rasmin chizadi qumga.
Qilt etgan jonzoti yotni kushlamas,
Kas poyi kuygaydir, qush uchib o'tmas.

Cho'l – bunda yo'qolgan – ignadek izsiz,
Shamollari betutqin, fasli tizginsiz.
Bunda bor norg'ullar hayqiriqlari,
O'tmish karvonlarin qo'ng'iroqlari.
Afsona so'ylamish uzug'u yuluq,
Yo'lichiga suv tutgan uchala quduq.

XX asr. Qizilqum. Hadsiz cho'l,
Kiftida ryuzgagi, kompas tutgan qo'l,
Va sarg'aygan, g'ijim xarita – najot,
Sahroga qadamin qo'ydi odamzot!
Beruniydan meros mash'ala ila,
Shuuri yoritdi yetti qat yerni.

Asr qahramoni – konchi-geolog,
O'zing me'morisan mo'jaz shaharni!
Uchquduq – javohir to'la sandig'ing,
Uchquduq – Mendeleyev ko'rgan tushmisan?!
Uchquduq – zafarning baland mayog'i,
Shimol azamatlarining bayrog'i.

Kim o'yilabdi dersiz, soqov sahroda,
Kun kelib odamzot saodat topgay.
Qo'ida borki ilmda najot,
Sohibi ilmlar charxni yurgizgay!
Paydevori – ilm, osmoni – ilm,
O'tayotgan tongi kutar jasorat.

Har odami qahramonga teng,
Har mehnatga rag'bat bor albat!
Azaldan bu millat bilagi to'liq,
Qonida qaynaydi shijoat, bilim.
Bariga guvohsan, ey odil tarix,
Olimlar o'stirgan kamtarin elim.

Olimlar oftobdir jamiyatlariga,
Nur-ziyo ulashar, suronsiz, sassiz.
Dunyoni qoldirib hayrat ichinda,
Dunyo zalvorini ko'tarar so'zsiz.
Oltin zavodining har yo'lagida,
Sohibi ilmlar qutlug' izi bor.

Samoga tutashgan texnikasida,
O'chmas imzosi va bedor ko'zi bor.
Matonat timsoli, ilm isboti,
Ulkan zakovatning mahsuli zavod.
Kitobga bosh egmay bosh bo'lmas tillo,
Oltin tafakkurlar ilhomi zavod!

Nilufar MUYDINOVA.

■ Dolzarb mavzuda suhbat



KOMBINAT SHUHRATINI OSHIRISH YO'LIDA

Avtomobil transporti iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblanadi. Zero, bugungi shiddatli davrda biror sohani avtomobil transportisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi Transport departamenti va uchta Avtomobil transport boshqarmalari, Ichki yonuv dvigatellarini ta'mirlash sexi hamda o'n uchta avtokorxonalarining o'n ming nafarga yaqin ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari ulkan korxonada masofasi oldida turgan vazifalarini bajarilishi, investitsion loyihalarning ro'yobga chiqarilishiga munosib hissa qo'shmoqdalar. "NKMK" AJning Transport bo'yicha direktori R. Ergashev bilan suhbatimiz kombinat transport xodimlari amalga oshirayotgan ishlar xususida bordi.

– Rustam Mahmudovich, kombinat transport sohasi xodimlari erishayotgan yutuqlar, davr talabidan kelib chiqib tizimda ro'y berayotgan o'zgarishlar haqida qisqacha so'zlab bersangiz.

– Avvalo, qator murakkabliklarga qaramasdan transportchilarimiz zimmalaridagi topshiriqlarni doimo uddalab kelayotganliklarini faxr bilan ta'kidlamoqchiman. Ularning-g'ayrat shijoati bilan joriy yilning o'tgan 9 oyida 212,9 million kubometr tog'-kon massasi tashib berilib, reja 102,6 foizga bajarildi.

Darvoqe, kombinatda mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi transport vositalari tomonidan tashiladigan tog' jinslari miqdorini ham oshirishni talab qiladi. Ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish "NKMK" AJ transport sohasi tuzilmasida ham o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etdi. Transport departamenti tarkibida Temir yo'l transporti bo'limidan tashqari yangi, Avtotransport vositalarini ta'mirlash, Avtotransport vositalaridan foydalanish va yoqilg'i-moylash materiallarini muvofiqlashtirish bo'limlari va Yo'l harakati xavfsizligini muvofiqlashtirish xizmatidan iborat Transport boshqarmasi tashkil etildi.

Transport vositalari, yo'l-qurilish mashinalari va tog'-kon mexanizmlarida eng muhim va qimmatbaho agregat bo'lgan yonuv dvigatellari. Ichki yonuv dvigatellarini soz holatida saqlash, dvigatelnig tasodifiy ishdan chiqishining oldini olish va xizmat muddatini uzaytirish maqsadida, zaruriy texnik xizmat ko'rsatish va rejali-profilaktik ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish, ta'mirdan so'ng sinov o'tkazish kabi kompleks ishlar amalga oshiriladi. Bunday katta hajmli ishlarini bajarish uchun Ichki yonuv dvigatellarini ta'mirlash sexi tashkil etildi.

Transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash sohasidagi lokal imkoniyatlarni kengaytirish, tashqi ta'minlovchilarga bog'liqlikni kamaytirish maqsadida sex tarkibida yuqori bosimli gidravlik shlanglar ishlab chiqarish uchast-

kasini tashkil etish ishlariga amalga oshirilmoqda. Gidravlik shlanglar zamonaviy avtotexnika va maxsus texnikalar – buldozer, ekskavator, avtoag'dargich, yuk ko'taruvchi kran kabi qurilmalarning gidravlik tizimlarida keng qo'llaniladi. Mahalliy ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi yuqori bosimli gidravlik shlang mahsulotini import qilishga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi.

Kombinat rahbariyati tomonidan ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va jarohatlanishning oldini olish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unga muvofiq, kombinat tarkibiy bo'limlari tasarrufidagi barcha foydali qazilma konlari uchastkalariga maxsus yangil qizil rangga bo'yalgan avtomobillar - kuzovida bayroq ustunlari o'rnatilgan pikaplar biriktirildi.

Yangi va yuk avtomobillari uchun ichki tartib va yo'l harakati qoidalari hamda texnika xavfsizligini takomillashtirish, shuningdek, barcha ochiq va yopiq foydali qazilma konlarida xodimlarning malakasini oshirish diqqat markazida bo'lyapti. Ochiq foydali qazilma konlarida foydalanish uchun mo'ljallangan maxsus transportlar yorug'lik qaytaruvchi elementli tasmalar bilan jihozlandi. Qazish hududida yo'lovchi avtobuslar, servis va ta'mirlash xizmatlari avtomobillaridan tashqari barcha transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi. Konning texnologik yo'llarida yorug'lik qaytarish elementlari yangilandi va texnologik yo'llarning kerakli qismlariga qo'shimcha ravishda yo'l belgilari o'rnatildi. Karyerlarda foydalaniladigan transport vositalari videokuzatuv moslamalari bilan jihozlanadi.

– Transport tarmog'ida mahalliyashtirish va raqamlashtirishni joriy qilish, avtokorxonalarining texnika parkini yangilash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

– Ishlab chiqarish uchun zarur tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallarni mahalliyashtirishga doimiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, import o'rni bosuvchi mahsulotlar parametrlari va sifatini talab darajasiga yetkazish, loyiha-texnologik ishlarini nazorat qilishda "Gid-



rostankoservis", "Navoiypromlitmesh", "Vodiy energomash mexanika", "SDK group", "Gauch", "Jizzax akkumulator zavodi", "Elmash", "Drillflot asia", "O'zelektroapparat", "Karbon – polimer", "Stalmet group service" kabi mahalliy ishlab chiqarish korxonalari, xo'jalik va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Natijada agregat va uzellarni, reduktor, elektr dvigatellarini ta'mirlash, nstandart ehtiyot qismlar, quyma va rezina mahsulotlari, tormoz diski, havo filtrlari, gidravlik filtrlar, yonilg'i filtrlar, akkumulator batareyalari, yuqori bosimli shlanglar, muftalarni ishlab chiqarish mahalliyashtirildi.

XXI asr axborot asri bo'lib, axborot texnologiyalari va raqamlashtirish barcha sohalarga kirib bormoqda. Avtomobil transportida mehnat unumdorligini oshirish, yoqilg'i sarfini kamaytirish, ortiqcha xarajatlarning oldini olish hamda avtotransportni nazorat qilish maqsadida korxonaning barcha bo'limlarida "Auto Call-Center", "Transport vositalarini nazorat qilish", "Videokran", "Avtomobilga buyurtma" kabi elektron tizimlar yaratildi va amaliyotga joriy etildi. Bundan tashqari, yangi loyiha – "1S:texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash" dasturiy platformada axborot tizimini ishga tushirish rejalashtirilgan. "1S:ToIR" dasturiy platformasi avtomobillar, kon-texnologik transport va mexanizmlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlarini rejalashtirish, omborlarda ehtiyot qismlar, sarflash materiallari va yoqilg'i-moylash materiallari mavjudligini hisobga olish imkonini beradi.

2025-yilda kon texnikalari parki muntazam

yangilanib borildi. 90 tonna yuk ko'tarish quvvatiga ega 64 dona, 55 tonna yuk ko'tarish quvvatiga ega 14 dona avtoag'dargichlar keltirildi va ishga tushirildi. Respublikada ilk bor yuk ko'tarish quvvati 221 tonna bo'lgan 5 dona HITACHI avtoag'dargichlari olib kelindi.

CAT, Komatsu hamda HITACHI rsumli avtoag'dargichlar zamonaviy bort kompyuterlari bilan jihozlangan bo'lib, nosozliklarni aniqlash uchun maxsus kodlar orqali tekzor ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Zamonaviy transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish Avtomobil transporti boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Og'ir va kon-texnologik transportni doimiy texnik soz holatda saqlashda unda ishlatiladigan yoqilg'i-moylash materiallarining sifatini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Yonilg'i-moylash materiallari sifatini nazorat qilish vazifalari Markaziy va Shimoliy kon boshqarmalarining Avtotransport boshqarmalaridagi laboratoriyalari tomonidan bajariladi.

– Iqtisodiy samaradorlikka erishish, kadrlar malakasini oshirish masalalariga ham to'xtalib o'tsangiz.

– Hisob ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda 19 ming tonnadan ortiq dizel yoqilg'isi va 250 tonna benzinni tejash rejalashtirilgan. Avtomobil shinalari va yonilg'i-moylash materiallaridan foydalanishda me'yoriy sarf ko'rsatkichlari ular-dan qanchalik oqilona foydalanishni tahlil qilish uchun zarur. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi "Transport

ilmiy-tadqiqot markazi" MChJ bilan hamkorlikda "NKMK" AJ tizimidagi avtotransport vositalari, yo'l-qurilish mashinalari va kon-texnologik transportlarda yonilg'i-moylash materiallari sarfi to'g'risidagi Nizom" va "NKMK" AJ obyektlarida ishlaydigan transport vositalari, yo'l-qurilish mexanizmlarida qo'llaniladigan avtomobil va yirik o'chamli shinalarning ekspluatatsion yurish masofasi me'yori" kabi majburiy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Soha mutaxassislarining malakasini oshirish masadida Markaziy kon boshqarmasida tashkil etilgan yagona O'quv markazi jihozlandi. Hamkorlarimiz tomonidan Caterpillar va Komatsu texnikalarining innovatsion tizimlari, jumladan, CAT Product Link va AMT tizimlari bo'yicha o'quv dasturlari, trenajorlarning dasturiy ta'minoti, ya'ni, yo'l-qurilish texnikalarining frontal yuqilg'ich, greyder, buldozer operatorlarini o'qitish uchun qo'shimcha modullar joriy etildi. Kombinat mablag'lari hisobidan transport sohasi xodimlari uchun yangi O'quv markazi ta'mirlanib, foydalanishga topshirish arafasida.

Ma'lumki, har yili oktabr oyining so'nggi yakshanbasi avtomobil transporti xodimlarining kasb bayrami sifatida nishonlanadi. Shu munosabat bilan "NKMK" AJ ma'muriyatining joriy yil 13 oktabrdagi farmoyishiga muvofiq 24-26 oktabr kunlari Zarafshon va Uchquduq shaharlarida bayram tadbirlari tashkil etilib, tarkibiy bo'limlar avtokorxonalarida haydovchilari o'rtasida kasbiy mahorat tanlovlari o'tkazildi.

Shu o'rinda avtotransport sohasi xodimlarining mashaqqatli va ayni paytda sharafli mehnati davlatimiz va kombinatimiz rahbariyati tomonidan munosib taqdirlanayotganligini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Markaziy kon boshqarmasi Avtomobil transporti boshqarmasi transport sexi og'ir yuk tashuvchi karyer avtoag'dargichi haydovchisi Sayfidin Bahronov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" faxriy unvoni, 3-avtobaza boshlig'i Rashit Tursunov "Do'stlik" ordeni, Shimoliy kon boshqarmasi Avtomobil transporti boshqarmasi dispetcheri Shodiyor Umarov, MKB Avtomobil transporti boshqarmasi karyer avtoag'dargichi haydovchisi Zokir Norov, kon ishlarini mexanizatsiyalash sexi boshlig'i Atabek Arapbayev, 9-avtokorxonada haydovchisi Muhiddin Hamidovlar "Shuhrat" medali, ko'plab transportchilar kombinatning turli darajadagi "Konchilik shuhrati" ko'krak nishonlari bilan taqdirlangani fikrimizning isbotidir. Rag'bat esa hamisha yangi marralarni egallashga chorlaydi. Avtomobil transporti xodimlari bor kuch va imkoniyatlarini bundan buyon ham kombinatimiz shuhratini yanada oshirish yo'lida safarbar etaveradilar.

Nizomiddin SADRIDDINOV suhbatlashdi.

SHIJOATLI MEHNAT SAMARASI

Har bir sohada izchil islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi kunda, transport va yo'l xo'jaligi tizimida ham ulkan o'zgarishlar kuzatilmoqda. Yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, ishlab chiqarishni samarali tashkil etish hamda aholiga transport xizmatlarini ko'rsatishda avtotransport sohasi xodimlarining o'rni beqiyosdir.

Janubiy kon boshqarmasiga qarashli 10-avtokorxonada jamoasi bu jarayonda yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Albatta, kon boshqarmasi korxonalarining uzluksiz ishlashi va unumdorligini oshirishda mazkur avtokorxonada jamoasining munosib hissasi bor. Avtotransport xodimlari qazilma boyliklarni belgilangan manzilga xavfsiz va o'z vaqtida yetkazish, shuningdek, ishchi-xodimlarni tashish kabi mas'uliyatli vazifalarni astoydil bajarishyapti.

Biz "Zarmitan" koni hududida joylashgan ushbu avtokorxonada boshlig'i Bobomurod Hamdamov bilan suhbatlashdik. Suhbat davomida avtokorxonada faoliyati, zamonaviy texnikalar imkoniyati va kelgusi rejalar haqidagi fikrlar aytiladi.

– Bobomurod aka, avtokorxonada joriy yilning o'tgan davri natijalari haqida ma'lumot bersangiz.

– Avtokorxonamizda ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan, jamoamiz ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlarining ruhiyati tetik. Joriy yil biz uchun

samarali va natijali bo'layapti. O'tgan to'qqiz oy davomida 1,7 million tonna ma'danni tashib, rejani 107,5 foizga bajardik. Shu davrda tog' jinslarini tashish hajmi 1,3 million kubometrga yetdi, bu esa reja 109 foiz bajarilganini bildiradi. Yo'lovchi tashish borasida ham yaxshi natijalar qayd etildi. 207,4 ming nafar yo'lovchini xavfsiz va o'z vaqtida manzilga yetkazishga erishdik. Bu ko'rsatkichlar jamoamizning mas'uliyatli mehnati va hamjihatligidan dalolat beradi.

– Albatta, yaxshi ko'rsatkichlar bu jamoada tashkilotchilik, hamjihatlik, sog'lom muhit yo'lga qo'yilganligi va tajribali kadrlar mehnatining samarasidir. Mutaxassislar faoliyatidagi qaysi jihatlarni ajratib ko'rsatgan bo'lardingiz.

– Avtokorxonamizda 39 nafar muhandis-texnik xodim, 298 nafar haydovchi, 56 nafar tog'-kon texnikalari mashinisti va 47 nafar chilaranglar faoliyat yuritmoqda. Ular doimo o'z vazifalarini halol va mas'uliyat bilan bajarishga in-

tilishadi. Ayniqsa, yetakchi mutaxassislarimiz – Shaxriddin Toirov, Erkin Burxonov, Sunnatillo O'rinboev, Maqsud Umirzoqov, G'ayrat Murodov, Dilshod Boliqulov, Komiljon Amanov hamda ta'mirlash ustalari Ulug'bek Valiyev, Hamid Axmatov, Jasur Musurmanovlar ishda yoshlarga namuna bo'lmoqdalar. Jamoamizda tajribali va mas'uliyatli haydovchilar ko'pchilikni tashkil etishi va ular yoshlarga kasb sirlarini, hayotiy tajribalarini o'rgatayotgani erishayotgan yutuqlarimizning asosiy omili bo'lmoqda. Men jamoada ustoz-shogird ana'analari bardavomligini alohida ta'kidlagan bo'lardim.

– Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Yangi haydovchilar bilan ishlashda qanday usullar qo'llanilmoqda?

– Texnika xavfsizligini ta'minlash va ishchi-xodimlarning hayoti, ularning sog'lig'ini saqlash ustuvor vazifalarimizdan biri. Mavjud avtoag'dargichlar va tog'-kon texnikalari belgilangan tartibda doimiy ravishda texnik ko'rikdan o'tkazilib, barcha haydovchilar uchun qulay va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratilgan. Ular maxsus himoya vositalari, sifatli maxsus kiyimlar bilan to'liq ta'minlanmoqda. Shuningdek, noqulay ish sharoitida faoliyat olib borayotgan haydovchi va ishchilarga davolash-pro-

filaktika oziq-ovqatlar berilyapti. Bu esa ularning salomatligini mustahkamlash, mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xodimlar uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslari, xavfsizlik qoidalari va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha maxsus o'quv mashg'ulotlari nazariy va amaliy jihatdan yuqori darajada tashkil qilinib, malakali mutaxassislar ishtirokida o'tkazilyapti. Texnika vositalarining ish faoliyatini doimiy kuzatib borish maqsadida zamonaviy monitoring va signalizatsiya tizimlari joriy etilganligi bois ularning texnik holati real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Yosh haydovchilar tajribali ustozlar nazorati ostida malakasini oshiradi. Har bir haydovchi xavfsizlik qoidalari qat'iy rioya qilishi shart. Bu borada jamoamizda yuqori malakali va mas'uliyatli mutaxassislar faoliyat yuritadi. Bu kabi chora-tadbirlar orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshirilishi bilan birga, inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilashda ham amaliy natijalarga erishilmoqda.

– Yaqin istiqbolda avtokorxonada ish samaradorligini oshirish va yangi texnikalar bilan ta'minlash bo'yicha qanday rejalar belgilangan?

– Korxonamiz tarkibidagi avtokolon-na, 3 ta transport va tog'-kon ishlarini mexanizatsiyalashtirish uchastkasida 187 ta turli rusedagi avtoag'dargich



va maxsus texnikalar ishlab chiqarish bo'limlariga xizmat ko'rsatadi. Investitsiya dasturlari doirasida va kombinat rahbariyatining yordami bilan turli avtotransport va yo'l-qurilish texnikalari xarid qilinib, transport parkimiz yanada kengaydi. Yaqinda Yaponiyada ishlab chiqarilgan, har biri 55 tonna yuk ko'tarish quvvatiga ega uchta KOMATSU avtoag'dargichi keltirildi. Ushbu yangi texnikalar vositasida "Zarmitan" va "G'ujumsoy" konlaridan tog' ma'danlari 4-gidrometallurgiya zavodiga tez va xavfsiz tashib berilmoqda. Yil oxiriga qadar yana 6 ta yangi texnika olish mo'ljallanmoqda. Bu esa ishimizning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga imkon berishi tabiiy. Kelgusida

ham kombinat rivojiga munosib hissa qo'shish niyatidamiz.

Bobomurod Hamdamovning ta'kidlashicha, kelgusida avtoparkni zamonaviy texnika vositalari bilan to'ldirish, haydovchilar malakasini oshirish hamda raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish bo'yicha aniq rejalar belgilangan.

Ahli jamoa ana shunday ezgu tashabbus va fidokorona mehnat bilan yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ular o'z kasblarining fidoyilari sifatida yutuqlarini yanada ko'paytirish yo'lida astoydil mehnat qilmoqdalar.

Dildora KARIMOVA.

■ 21-oktabr - O'zbek tili bayrami kuni

TIL – MA'NAVIYAT SARCHASHMASI!

Til – hayotning boshlanishi. Inson ulg'aygan sayin atrofidagilar bilan muloqot qilish, badiiy kiotoblari o'qish orqali so'z boyligini oshirib boradi. Ota-bobolarimiz tarixi, milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz bizga ona tilimiz yordamida meros bo'lib qoladi. Mustaqillikning asosiy belgilaridan biri – bu ona tili va milliy madaniyatidir. Dunyoning barcha davlatlari o'z ona tillarini asrab-avaylashga intilishadi, shuning uchun har qanday davlat o'zining madaniy merosi va ona tilini alohida hurmat qiladi.

Mamlakatimizda 1989-yilning 21-oktabrida o'zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi istiqbolimiz sari qo'yilgan dadil qadamlardan biri sifatida tarixda muhrlangan edi. Ayni paytda ona tilimizga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham yuqori pog'onaga ko'tarilib, uning boy xazinasini qayta tiklab rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biz odatda har yili Til bayrami kuni ona tilimiz haqida gapirib uni nishonlashga o'rga-

nib, qolganmiz. Biroq, tilimizning sofligi uchun har kuni hushyor bo'lishimiz taqozo etiladi. Shunday tiling, millatning qadri va obro'yi, nufuzi oshadi. Tilga hurmat – bu xalqqa hurmat. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar darajasiga erishish uchun O'zbekiston fuqarolari xalqaro tillarni bilishlari muhim, albatta. Chunki biz global rivojlanish tendensiyalaridan orqada qola olmaymiz. Lekin shuni unutmaslik kerakki, o'zbek

tili dunyodagi barcha rasmiy tillar qatori suveren til maqomini olgan ekan, har bir O'zbekiston fuqarosi davlat tilini bilishi shart. Til davlat timsoli, mulki hisoblanadi. Binobarin, o'zini o'zbek millatining farzandiman, deb bilgan har bir shaxs ona tilimizga e'tiborli bo'lishi, uning sofligini asrab-avaylashni muqaddas burchi deb bilishi shart. Shuni ham ta'kidlash joizki, o'ttizdan ortiq millat va elat vakillari o'zaro tinch-totuv va birdamlikda mehnat qilib kelayotgan Markaziy kon boshqarmasida ham millatlarining milliy madaniyati, urf-odat, jumladan, ona-tiliga hurmat-ehtiromlar bilan munosabatda bo'lishga e'tibor berilmoqda. Turli millat vakillari barcha me'yoriy hujjatlarni o'zbek tilida yuritishadi. 21-oktabr - O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan boshqarmaning barcha bo'linmalarida "Til – millat ko'zgusi" mavzusiga bag'ishlangan ma'naviyat soatlari, davra suhbatlari o'tkazildi. Tadbirlarda so'zga chiqqanlar

ishchi-xodimlarga ona tilimizning tarixi, jamiyatimiz taraqqiyotidagi o'rni, davlatimizning ona tilimizga bo'lgan e'tibori to'g'risida ma'ruzalar qilishdi. Hech kim, hech qachon o'z ona tiliga bo'lgan hurmatni yo'qotmasligi kerak. Tilning egasi xalq, ammo xalqning birgina vakili loqayd bo'lsa ham milliy til sofligiga putur yetadi. Tilimizni e'zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqei yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma'naviy burchimiz bo'lib qoladi. O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shish har birimizdan milliy tilga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etadi. Zero, til bor ekan, millat barhayotdir.

Ilhom RAJABOV
MKB Axborot va ma'naviyat-ma'rifat guruhi rahbari.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 36 yilligi va O'zbek tili bayrami munosabati bilan kombinat bo'linmalarida qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etilmoqda. "NKMK tarixi" muzeyida mazkur sana munosabati bilan kombinat ishchi-xodimlari uchun "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" shiori ostida adabiy-badiiy kecha hamda kombinatda ko'p yillardan buyon faoliyat yuritib kelayotgan O'zbekiston Qahramoni F.Soyibov bilan ta'lim muassasalari o'qituvchi va talabalari, jamoatchilik vakillarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.

ADABIY-BADIIY KECHA



Tadбир avvalida O'zbekiston Qahramoni F.Soyibovning hayot yo'lga bag'ishlangan "Yaxshilik daraxti" kitobi, uning ko'p yillardan buyon kombinatda olib borayotgan mehnat faoliyati hamda mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar to'g'risida fikr-mulohazalar bildirildi. Navoiy davlat universiteti qoshidagi Akademik litsey bosh o'qituvchisi Z.Mansurova, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Navoiy viloyat hududiy bo'linmasi o'qituvchisi H.Egamovalar o'zbek tilining jamiyatda muhim o'rin tutishi, "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi qonunning bajarilishi, ona tilini asrash va rivojlantirish har bir fuqaroning burchi ekanligini ta'kidladilar. Ta'lim muassasalari talabalari tomonidan o'qilgan ona tilimizni tarannum etuvchi she'rni, turli videorolik-

lar tadbirga o'z gacha ruh bag'ishladi. – O'zbek tili bayrami nafaqat davlat tili sifatida uning maqomini oshiradi, balki mamlakatimizda milliy madaniyat, ma'rifat va o'zlikni mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega, – deydi "NKMK" AJning Ma'naviyat va ma'rifat markazi mutaxassisi A.Ro'ziyeva. – Har yili sana munosabati bilan tashkil etilayotgan bu kabi tadbirlar milliy qadriyatlarini saqlash, mustahkamlash, ularni yoshlar ongiga singdirish, millatning ma'naviy boyligini mustahkamlash, til va madaniyatni asrab-avaylashda muhim rol o'ynayapti. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 36 yilligi hamda O'zbek tili bayramiga bag'ishlangan adabiy-badiiy tadbirlar shuningdek, Zarmitan qo'rg'oni, Marjonbuloq shahri va Navoiy mashinasozlik zavodida ham bo'lib o'tdi.

D.KARIMOVA.



"ONA TILIM – IFTIXORIM"

Shimoliy kon boshqarmasi ishchi-xodimlari ishtirokida o'zbek tilini milliy qadriyat sifatida targ'ib qilish, unga nisbatan xodimlarda faxr tuyg'usini shakllantirish maqsadida ana shu mavzuda tadbir tashkil etildi.

Tadbirda so'z olganlar o'zbek tilining tarixi, bizgacha bo'yib yetib kelishida atqoli shoir, adib va mutafakkirlarimizning ijodiy zahmatlari, yaqin o'tmishda, yanada sayqallanishi, har qanday voqea-hodisani badiiy ifodalashdagi imkoniyatlari, dunyo miqyosidagi ahamiyati hamda nufuzini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar to'g'risida alohida to'xtaladilar. Til bayrami munosabati bilan tashkil etilgan adabiy kecha so'ngida "O'zbek tilida eng yaxshi she'r aytish" tanlovi o'tkazildi. Tanlovda 3-gidrometallurgiya zavodi ishchisi Nargiza Boboqulova, Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi nazoratchisi Jamila Kenjayeva, boshqarma faroshi Ozoda Musayevlar g'olib deb topildi. Ularga esdalik sovg'alari topshirildi. O'zbek tiliga bayrami kuni munosabati bilan o'tkazilgan targ'ibot tadbiri yig'ilganlarda yaxshi taassurot qoldirdi.

Laylo KARIMOVA.

■ Tibbiyot



Butun dunyoda oktyabr "Pushti oy" deb aytilishidan xabardormisiz? Bu tashabbus o'tgan asrning 90-yillarida paydo bo'lgan hamda o'sha vaqtdayoq pushti lenta ayollar birdamligi va ko'krak bezi saratoniga qarshi kurash ramziga aylangan.

AYOLLAR SALOMATLIGIGA E'TIBOR

O'zbekistonda "Pushti oktabr" oyiligi Sog'liqni saqlash vazirligi, Ommaviy axborot vositalari, Strategik islohotlar agentligi hamkorligida Salomatlik va strategik rivojlanish instituti, jamoat tashkilotlari hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi ko'magida o'tkazilmoqda. Mavzuning nihoyatda dolzarbligi va muhimligini inobatga olgan holda Tibbiy-sanitariya bo'limining bevosita ayollar salomatligiga mas'ul bo'lim va shifokorlari oylik doirasida qator tashviqot-profilaktik tadbirlarni tashkil etmoqdalar.

Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Nurobod shaharlari va Zafarobod qo'rg'onida ishchi-xizmatchi xotin-qizlar, aholi ishtirokida sut bezi va ayollar bachadon bo'yni saratonining oldini olish diagnostikasi haqida davra suhbatlari o'tkazildi. Unda quyidagi satrlar muallifidan tashqari TSB mutaxassislari-onkolog vrach B.Raxmatov, kalkoskopchi ginekolog R.Bichurinalar ayollarga ginekologik kasalliklarning oldini olish, aniqlash va davolash xususida atroflicha tushuntirish berdilar. Shu mavzudagi davra suhbatlari barcha Tibbiy-sanitariya qismlarida o'tkazildi.

Zarafshon shahrida tashkil etilgan sayyor seminar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yilning 22-noyabrda imzolangan "Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlashga bag'ishlandi. Markaziy kon boshqarmasi, Zarafshon qurilish boshqarmasi, shuningdek, madaniyat va sport sohasi bo'linmalarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar ishtirok etgan tadbirda tajribali shifokorlar xotin-qizlarning tibbiyotga oid bilimlari va savodxonligini oshirish uchun onkologik kasalliklarni barvaqt aniqlash usullari, profilaktika choralarini, tibbiy ko'rikdan muntazam

o'tishning ahamiyati haqida keng ma'lumot berdilar. Tashviqot tadbirlaridan kuzatilgan maqsad-ayollarga o'z salomatligiga e'tibor qaratishga yordam berish, kasallikni erta aniqlash minglab xotin-qizlarning hayotini saqlab qolishning kafolati ekanligini bot-bot eslatishdan iboratdir.

Darvoqe, ko'krak bezi saratoni ayollar orasida eng ko'p uchraydigan uchta onkologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Afsuski, aksariyat hollarda kasallik kech aniqlanadi. Agarda biz o'zimiz va atrofimizdagilarga e'tiborliroq bo'lsak, hammasi boshqacha bo'lishi, xavfli kasallikning oldini olinishi ham mumkin. 2023-yilda dunyo bo'yicha 670 ming nafar ayol ko'krak bezi saratonidan vafot etganligi har bir vijdonli insonni chuqur o'ygatadigan tabiiy. 50 yoshga to'limgan ayollarda ham ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish kuzatilayotganligi yanada achinarli holdir. Umumiy o'lim holatlari kasallikning erta aniqlanishi va o'z vaqtda davolanishi yodiga kama-yotganligini hamisha yoshda saqlash hamda bu muhim talablarni bajarishga e'tibor berish lozim.

16-oktabr kuni TSB majlislar zalida "Pushti oktabr"ning kelib chiqish tarixi, korxon va muassasalar, Tibbiy-sanitariya bo'limi va uning qismlarida onkologik kasalliklar nazorati va profilaktikasi yuzasidan yil davomida amalga oshirilgan ishlarining fotohisoboti namoyishi etildi. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ayollar salomatligi-bu jamiyatning, har bir oilaning baxtidir. Shunday ekan, xotin-qizlar salomatligi haqida qayg'u-rish, turli, ayniqsa onkologik kasalliklarning imkon qadar oldini olish nafaqat tibbiyot xodimlari, balki barchamizning burchimizdir.

Gulbahor NURIDDINOVA,
TSB Ayollar maslahatxonasi mudiri.

KO'Z OSTIDA SHISH PAYDO BO'LISHI va uning oldini olish choralari

Ko'z osti sohasida shish paydo bo'lishi aholi o'rtasida ancha keng tarqalgan muammolardan biridir. Sababi ko'z osti to'qimalari zich emas, bo'shashgan tuzilishga ega mayda qon tomirlari ko'p. Kollagen tolalar va yog' to'qimalari esa juda kam. Shuning uchun ko'z osti shishishga moyil bo'ladi.



Odatda bu hol ovqatlanish rejimi buzilganda, yotishdan oldin sho'r taomlar iste'mol qilganda, ko'p suyuqlik ichilganda kuzatiladi. Dudlangan, achchiq oziq-ovqat mahsulotlari, spirtli ichimliklar iste'mol qilish ko'z ostida shish paydo bo'lishiga olib keladi. Shishni zudlik bilan bartaraf etish uchun bir necha daqiqaga muzdek kompress qilish tavsiya etiladi.

Ko'z ostidagi shishlar muntazam ravishda tongda paydo bo'lib, uzoq vaqt turadi. Yuzning barcha qismida shish kuzatilib, bemor uyqudan uyg'ongach, yuzida yostiq burmalarning izini ko'rish mumkin. Qalqonsimon bez, buyrak, yurak-qon tomir tizimi, jigar kasalliklarida bemorning ko'z ostida shish paydo bo'ladi. Bundan tashqari teri rangi sarg'ayadi, ko'ngil aynishi, oyoqlar shishishi, yon bosimi ko'tarilishi mumkin. Shishni keltirib chiqargan kasallikni aniqlash va davolash lozim.

Odatda ko'z ostida shish inson 35-40 yoshdan oshganda paydo bo'ladi va o'z-

o'zidan yo'qolmaydi. Buning asosiy sababi shundaki, ko'z atrofidagi mushaklar yosh o'tishi bilan zaiflashib, osilib qoladi. Natijada mushak orqasidagi yog' to'qimasi mushak tolalari orqali o'tib, uning ustiga joylashadi. Oqibatda mayda qon tomirlari tur'gun holga kelib, bu shishga olib keladi. Ko'z ostidagi shish irsiyat bilan bog'liq holda bolalikdan paydo bo'ladi va yo'qolib ketmaydi.

Ko'z ostida shish hosil bo'lishini bartaraf etish uchun to'g'ri ovqatlanish, suyuqlik to'planishning oldini olish zarur. Yuzda yostiq burmalarning izini ko'rish mumkin. Qalqonsimon bez, buyrak, yurak-qon tomir tizimi, jigar kasalliklarida bemorning ko'z ostida shish paydo bo'ladi. Bundan tashqari teri rangi sarg'ayadi, ko'ngil aynishi, oyoqlar shishishi, yon bosimi ko'tarilishi mumkin. Shishni keltirib chiqargan kasallikni aniqlash va davolash lozim.

Baxtigul UTEMURATOVA,
shifokor.

ЗНАНИЕ ЯЗЫКА – ЭТО МОСТ К СЕРДЦАМ ЛЮДЕЙ

Анна Лешукова в 2023 году прибыла по приглашению в АО «Навоийский горно-металлургический комбинат» из России, работает главным специалистом отдела устойчивого развития и окружающей среды Проектного офиса Управления трансформации комбината. Она рассказала, как складываются её отношения с изучением узбекского языка.

– Когда в 2023 году мне предложили работу в НГМК, я не раздумывала - возможность поработать в динамично развивающейся стране казалась привлекательной. Приехала в Узбекистан полная энтузиазма, но с небольшим знанием о местной культуре. Первый день на работе в офисе комбината впечатлил: дружные коллеги и атмосфера инноваций. Однако скоро поняла, что без знания узбекского языка мне будет сложно. Большинство сотрудников говорили на узбекском, документы и обсуждения часто велись на государственном языке. Из-за недостатка времени не было возможности записаться на курсы изучения узбекского языка, хотя многие мои коллеги воспользовались ими. Поэтому изучала и изучаю его самостоятельно. Выучила базовые фразы – «ассалом алейкум» (здравствуйте), «катта рахмат» (большое спасибо), «кечирасиз» (извините), «уй» (дом),

«иш» (работа), «хозир милиция чакираман» (сейчас милиция вызову). Общаюсь с местными коллегами, запираю необходимые новые слова и предложения на стикерах и в блокнот, таким образом, получился у меня небольшой словарь.

Изучение документов также пополняет словарный запас – «режа» (план), «чорак тadbirlar» (квартальные мероприятия), «ёняпти» (горит – про работу), «тушунarli» (понятно), «юз фoиз» (сто процентов) и т.д. – значение этих и многих других терминов, слов и фраз в документах узнаю с помощью компьютерного переводчика и с помощью коллег. Мой коллега Джахонгир стал моим, так сказать, «языковым партнёром» – он корректирует мою речь, от него узнаю новые слова.

К сожалению, я не погружалась полностью в изучение узбекского языка, учу только необходимые фразы и спо-

ва. Но изучение любого нового – это очень полезно. А мы работаем здесь, и важно, чтобы мы находили точки соприкосновения и коммуникации. Для меня владение языком, пусть минимальным – это приближение к культуре и к людям. Говоря на их языке, используя популярные фразы, я могу таким образом показать своё уважение к ним и к культуре народа.

Также в Узбекистане я научилась при встрече, говоря «ассалом алейкум», прикалывать руку к сердцу – и это искренний жест, мне он нравится. Выражение «худо хохла» (если Богу будет угодно) также мне близко, потому что в Латинской Америке, где я раньше работала, тоже говорят «сначала Бог» или «если Бог даст, тогда всё получится». Слова «чарчаманг» (не уставайте) и «соғ бўлинг» (будьте здоровы) тоже часто используются, и я узнала, что это тоже очень важные слова в обиходе, как добрые пожелания.

В целом, узбекский язык довольно мелодичный, буду учить его и дальше, и советую всем, кто приезжает сюда работать, учить язык. Это мост к сердцам людей и ключ к успеху в этой прекрасной стране.

Записала Насиба ШАМУРАТОВА.

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS:
"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV

Tahririyat manzili:
210100,
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi,
27-uy,
"NKMK" AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM bo'linmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta "Konchilar hayoti" gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. "Noshir Lux" MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. **Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Sptamen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Azamat ZARIPOV**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 11700 nusxada chop etildi. Buyurtma № 499. 2025-yil 28-oktabr 17:00 da chop etishga topshirildi.